

O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASIDA SHEVALARNING TASNIFLANISHIGA DOIR TADQIQOTLAR XUSUSIDA

Nurmanov Furqat Xayitqulovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti doktoranti

Email: furqatnx@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2895-4717>

ANNOTATSIYA

Milliy til millat boyligi, uning milliy madaniyatini ifodalovchi vosita sanaladi. Til borliqni anglash, bilish va fikr almashish vazifasini bajaradi. Shuningdek, til bashariyat tomonidan asrlar davomida to‘plangan bilim va ko‘nikmalarni saqlaydi, rivojlantiradi, kelajak avlodlarga asrab-avaylab yetkazadi. Adabiy til barqaror, ma‘lum qoliplarga solingan, me‘yorlashtirilgan, umume’tirof etiladigan hamda so‘z ustalari tomonidan sayqallashtirilgan til hisoblanadi. Dialekt esa ma‘lum hududda amal qiladigan umumxalq tilining son jihatdan nisbatan kam bo‘lgan, biroq hududiy, kasb-hunar va boshqa jihatdan umumiylikka ega bo‘lgan kishilar tomonidan qo‘llanadigan ko‘rinishidir. Shunday ekan haqiqiy etnik madaniyatni ifoda etishda tilning adabiylashgan ko‘rinishiga nisbatan shevalar samaraliroq sanaladi. Shuning uchun ham xalq tilida yashashayotgan sheva va lahja materiallarini tadqiq qilish zarur. Tilshunoslik fanida shevaga xos so‘zlar tadqiqini buyuk tilshunos olim Mahmud Koshg‘ariy boshlab bergan, deya juda ko‘p e’tirof etiladi. Ushbu tadqiqotimizda ko‘p yillik tarixga ega bo‘lgan o‘zbek shevashunosligida qipchoq shevasining o‘rganilishi haqida fikr yiritamiz.

Kalit so‘zlar: Millat, milliy til, til tabiati, adabiy til va sheva, lahja, dialekt, shevalar tasnifi, fonetik belgi, morfem belgi, klassifikator, shevashunos, turkolog, sheva materialli.

ОБ ИССЛЕДОВАНИЯХ ПО КЛАССИФИКАЦИИ ДИАЛЕКТОВ В УЗБЕКСКОЙ ДИАЛЕКТОЛОГИИ

АННОТАЦИЯ

Национальный язык – это богатство нации, средство выражения ее национальной культуры. Язык служит средством понимания, познания и обмена идеями. Также язык сохраняет, развивает и бережно передает будущим поколениям знания и умения, накопленные человечеством веками. Литературный язык устойчив, зафиксирован в определенных закономерностях,

стандартизирован, общепризнан и отшлифован мастерами слова. Диалект - это форма национального языка, используемая в определенном регионе, которой пользуются сравнительно малочисленные люди, но имеющие общие территориальные, профессиональные и другие аспекты. Поэтому диалекты считаются более эффективным средством выражения реальной этнической культуры по сравнению с литературной формой языка. Вот почему необходимо исследование материалов на речие и диалектов, живущих в национальном языке. Широко признано, что изучение диалектных слов в лингвистической науке проложил великий ученый-лингвист Махмуд Кошгари. В данном исследовании мы рассмотрим изучение кыпчакского диалекта в узбекской диалектологии, имеющей давнюю историю.

Ключевые слова: Нация, национальный язык, природа языка, литературный язык и диалект, на речие, диалект, классификация диалектов, фонетический признак, морфемный признак, классификатор, диалектолог, тюрколог, диалектный материал.

ABOUT RESEARCH ON THE CLASSIFICATION OF DIALECTS IN UZBEK DIALECTOLOGY

ABSTRACT

The national language is the wealth of the nation, a means of expressing its national culture. Language serves as a means of understanding, knowing and exchanging ideas. The language also preserves, develops and carefully passes on to future generations the knowledge and skills accumulated by humanity over the centuries. Literary language is stable, fixed in certain patterns, standardized, generally recognized and polished by masters of words. A dialect is a form of a national language used in a particular region, used by a relatively small number of people, but sharing common territorial, professional and other aspects. Therefore, dialects are considered a more effective means of expressing real ethnic culture compared to the literary form of the language. That is why it is necessary to study speech materials and dialects living in the national language. It is widely accepted that the study of dialect words in linguistic science was pioneered by the great linguist Mahmoud Koshgari. In this study, we will consider the study of the Kipchak dialect in Uzbek dialectology, which has a long history.

Key words: Nation, national language, nature of language, literary language and dialect, in speech, dialect, classification of dialects, phonetic feature, morphemic feature, classifier, dialectologist, Turkologist, dialect materialist, dialect material.

KIRISH

Dialekt, lahja va sheva tushunchalari hamda o‘zbek shevalarining tasniflanishi. Ma’lumki, har bir fanda bo‘lgani kabi dialektologiyada ham o‘zining asosiy tushuncha va terminlari mavjud. Dastlab, bu uchala termin bo‘yicha lug‘atda berilgan ta’rifga to‘g‘talib o‘tamiz. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “Dialekt (yun. Dialektos – lahja, sheva) umumxalq tilining adabiy tildan ma’lum xususiyatlari bilan farq qiluvchi mahalliy va ijtimoiy ko‘rinishi¹” sifatida izohlangan. Xuddi shu kabi ta’rif “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati” da ifodalangan. Ammo ilmiy manbalarda dialekt tushunchasi ham sheva ham lahja mazmunida birdek qo‘llanilaveradi. Lahja esa “Izohli lug‘at”da quyidagicha tavsiflangan: Lahja (arabcha so‘z bo‘lib, til, lahja, talaffuz, aksent) mahalliy dialektning bir necha shevalardan iborat guruhi². Lahja termini o‘zbek va turk tillarida qo‘llaniladi, boshqa tillarda esa faqatgina dialekt va sheva atamalari ishlatiladi³. Lahjalar milliy tildan keyin turuvchi quyi bo‘g‘in hisoblanadi. Ularning o‘ziga xos grammatik tuzilishi va fonetik o‘ziga xosligi mavjud. Lahjalar umumiy xususiyatlari bir biriga yaqin shevalar to‘plamidir. Sheva (forscha, usul, tarz, uslub, odat, odatlanganlik) - umumxalq tilining ma’lum hududga xos tarmog‘i, mahalliy til⁴ sifatida izohlanadi. “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati” da “Mahalliy dialektning fonetik, leksik, grammatik umumiylikka ega bo‘lgan bir yoki bir necha qishloqni o‘z ichiga oluvchi kichik bir qism, guruh⁵” sheva sifatida ta’riflangan. Ilmiy adabiyotlarda Bu uch tushuncha, ba’zan, o‘zaro almashinib qo‘llaniladi. Olimlar tomonidan yaratilgan dialektologik tadqiqotlarda dialekt, sheva va lahja so‘zlarini farqlamasdan, sinonim so‘z kabi aralshtirib qo‘llash holatlari mavjud. Shuningdek, dialekt terminini faqat shahar shevalari uchun foydalanish o‘rinlari ham mavjud⁶. Dialektologiya va shevashunoslik terminlari sinonim sifatida bir mazmunda qo‘llaniladi.

Har qanday ilmiy tadqiqotda maqsad birlamchi bo‘lib, olib borilayotgan ishning samarasi muhim ahamiyatga ega. O‘zbek shevalarini tadqiq qilishdan maqsad milliy tilning bor boyligi ko‘rsatish va xalq tilida mavjud bo‘lgan birliklarni saqlab qolishdan iborat. Chunki adabiy tilning taraqqiy etishi mobaynida shevalardagi milliy mental birliklar, lingvomadaniy tushunchalarni ifodalaydigan konseptlar, har bir hududning

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати 5 жилдли, 1-жилд. -Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти, 2006. -Б.604.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати 5 жилдли, 2-жилд. -Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти, 2006. -Б. 493.

³ Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi, Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashri, 2013, -B. 6.

⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати 5 жилдли, 4-жилд. -Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти, 2006, -Б.562.

⁵ Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. -Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 2002, -Б.130

⁶ Тўйчибоев Б., Хасанов Б. Ўзбек диалектологияси. -Тошкент: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2004, -Б.5-6.

oʻziga xosligini koʻrsatib beradigan soʻz va iboralar, madaniy xoslangan lakuna va lingvokulturemalar asta-sekin tarix zamiriga singib ketaveradi. Shuningdek, oʻzbek tili lugʻat boyligini butun koʻlami bilan namoyon qilish uchun ham shevalarni tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega. Rasmiy maʼlumot sifati koʻrsatiladigan “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” da jamlagan 85 mingdan ortiq soʻz va ibora tilimizning butun boyligi va borligʻini ifoda eta olmaydi. Sheva va lahjalarimiz qarida 100 minglab milliy soʻz va iboralar borki, ularni tadqiq va tahlil qilish orqali jamlab, yagona korpusga kiritishimiz hamda kelesak nasllar uchun avaylab-asrashimiz oʻzbek shevashunosligi va dialektologlarning oldidagi muhim vazifa hisoblanadi. Ana shunday maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun ham oʻzbek dialektologiyasi tarixini oʻrganishimiz, olib borilgan tadqiqotlarni tahlil qilishimiz, yutuq va kamchiliklarini oʻrganib xulosa chiqarishimiz lozim. Shuning uchun ham tadqiqotimizda sheva lahjalarning oʻrganilish bosqichlarini koʻrib chiqishga harakat qilamiz.

Tahlil: Yuqorida qayd etib oʻtganimizdek, oʻzbek shevashunosligi uzoq tarixga ega. Mahmud Koshgʻariy oʻzining “Devonu lugʻati-t-turk” asari turkiy xalqlarning qomusiy ilmiy manbasi hisoblanadi. 8000dan ortiq turkiy soʻzni toʻplab, tadqiq qilgan va arab tilida izohlagan olim turkiy lahjalarning tasnifini ham yaratgan. Zamonaviy tadqiqotchilarning taʼkidlashicha, Koshgʻariy turkiy tilni 20 dan ortiq qabilalarga tegishli ekanligini sanab oʻtadi. Ularni, asosan, 2 guruhga ajratadi: sof (toʻgʻri) turkiy qabilalarning tili va aralashgan turkiy qabilalarning tili. Bunda Koshgʻariy yaxmo, tuxsi, oʻgʻuz, qirgʻiz, bulgʻar, pecheneg, Volga va Irtish daryosi boʻyida uygʻur shaharlarigacha boʻlgan hududlarda yashovchi qabilalar tili va “Xoqoniya turkchasi”ni sof, aralashmagan turkiy til sifatida tasnif qiladi. Soʻgʻd tili taʼsirida boʻlgan turkiy qabilalar: sugʻdak, kunjak, argʻu hamda tibet-xoʻtanliklar taʼsirida boʻlgan: tibetliklar, xoʻtanliklar va tangʻutlar tilini aralash turkiy til sifatida ajratadi. Bundan tashqari, Koshgʻariy fonetik va morfologik tuzilishiga koʻra ham turkiy tillarni tasniflagan¹.

XX asrning boshlaridan buyon shevashunoslik fani zamonaviy ilmiy yoʻnalish sifatida taraqqiy topib kelmoqda. Zamonaviy oʻzbek dialektologiyasining ilk tamal toshlarini rus olimlari qoʻygan desak mubolagʻa boʻlmaydi. Aynan ular tomonidan oʻzbek shevalari guruhlariga tasniflangan. Dastlab rus olimi professor I.I. Zarubin oʻzbek shevalarini 4 guruhga: Fargʻona, Xiva-Xorazm, Toshkent va Samarqand-Buxoro shaklida ajratadi. Bu guruhlariga oid asosiy farqlab turuvchi belgilar haqida hech qanday maʼlumot berilmaydi. Shuningdek, fonetik jihatdan j-lovchilar guruhi hamda shimoliy oʻzbek shevalari haqida hech qanday fikr berilmaydi².

¹ Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. -Тошкент: Ўқитувчи, 1996. -Б.14-15.

² Ashirboyev S. Oʻzbek dialektologiyasi, Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashri, 2013, -B. 34.

K.K.Yudaxinning tasnifi sof va aralashganlik holati bo'yicha ajratilgan, ya'ni singormanizmni o'zida saqlagan shevalar va tojik tili ta'siridagi shevalar¹. Y.D.Polivanov esa, dastlab, K.K.Yudaxin kabi eronlashgan va eronlashmagan dialektlarga tasniflaydi hamda ularni bir necha tiplarga ajratib chiqadi².

Y.D.Polivanov XX asr boshlarida o'zbek fani, jumladan, tilshunoslik va uning zamiri bo'lgan sheva va lahjalarni tadqiq qilish bo'yicha muhim shaxslardan biri hisoblanadi. Rus sharqshunosi bo'lgan olim, o'zi yapon tili bo'yicha mutaxassis hisoblansa ham 20 dan ortiq tilni bilgan. O'tgan asrning 20-yillari boshida Toshkentda, keyinchalik Samarqand va hatto Qirg'iztonda ham faoliyat olib boradi. Uning asosiy ilmiy tadqiqotlari turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili va shevalarini o'rganishga bag'ishlangan edi. Olim dialektologik ekspiditsiya tashkil qilib, o'zbek shevalaridan materiallar to'plangan. "Xorazmdagi o'zbek shevalarining muxtasar ocherki", "O'zbek dialektologiyasi bo'yicha materiallar" kabi o'zbek shevashunosligining ilm ilmiy manbalarini yaratgani haqida manbalarda ma'lumot keltiriladi³. Olim bir qator o'zbek shevalari va dialektlari o'rganib, yig'lgan materiallar asosida shevalarning klassifikatsiyasini ishlab chiqadi. E.D.Polivanov klassifikatsiyasi uchun tildagi ikki holatni asos qilib oladi: qardosh tillarning chatishuvi – metisatsiya va qardosh bo'lmagan tizimdagi tillarning chatishuvi – gibridizatsiya. Bundan tashqari, olim shevalardagi fonetik o'zgarishlar jarayonini inobatga olgan holda o'zbek shevalarini 2 guruhga tasniflaydi: eronlashgan o'zbek shevalari va eronlashmagan shevalari. Eronlashmagan shevalarga j-lovchi qipchoq dialektidagi va Farg'ona vodiysining Saroy, Andijon, Yo'lguzar, Mankent kabi singarmonizmi bor shevalarini kiritadi. Shuningdek, eronlashish elementlari kam deb baholanadigan sifatida Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Shahrixon Toshkent dialektlari qayd qilngan bo'lsa, Buxoro, Samarqand, Xo'jand, O'ratepa tipidagi shevalarni esa maksimal eronlashgan deya e'tirof etilgan. Ya'ni bu shevalar tojik tilining ta'sirda bo'lgan shevalar hisoblanadi. Bunday shevalarni Y.D.Polivanov 4 ta tipga ajratib tadqiq qiladi: 1..Samarqand-Buxoro shahar shevalari; 2. Toshkent va uning atrofidagi hududlar shevalari; 3. Qo'qon va Marg'ilon shevalar; 4. Andijon va Shahrixon hududlari va Namangan, Chortoq, Uychi, Shohand kabi umlautli shevalar.

Zamonaviy dialektologiyamizda O'g'uz lahjasi sifatida tadqiq qilinadigan shevalar guruhini E.D.Polivanov 2 tipga tasniflagan. Birinchi tipga Xorazm shevalarini kiritgan bo'lsa, ikkinchi tipda esa hozirgi Qozog'iston Respublikasida joylashgan

¹ Юдахин К.К. Некоторые особенности Карабулакского говора / Ўзбек диалектологиясидан материаллар, Т1. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1957. 86-б;.

² Поливанов Е. Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. Т, 1933.

³ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. -Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. 2006. -Б.301

Chimkent, Turkiston, Iqon, Mankent, Qorabuloq hududlaridagi o'zbek shevalarini hamda Forish tumanidagi ayrim qishloq shevalari o'rin olgan. Uchinchi dialekt sifatida qipchoq lahjasini belgilangan olim ularni 7 tipga ajratadi. O'rta va shimoliy Xorazm shevalari, O-lovchi qozoq-nayman shevalari, Ohangaron vodiysi Qurama shevalari, Shimoliy o'zbek shevalari, O'rta o'zbek shevalari, Qirq, Laqay shevalari va Afg'onistondagi qipchoq shevalari Qipchoq dialektini tashkil etishi ilmiy jihatdan to'g'ri asoslangan.

Umuman, yirik tilshunos olim Y.D.Polivanov o'zbek shevalarini klassifikatsiyasi tilning tarixiy tadrijiy taraqqiyotida tashqi omillarni muhim factor sifatida ko'radi va shu bo'yicha yondashadi. Milliy tilimiz va uning sheva va lahjalaridan asrlar davomida shakllangan ichki o'zgarish va evrilishlarni omil sifatida qayd etmaydi va kam murojaat qiladi. Shunday bo'lsa-da, olimning shevalarni tadqiq qilish, materiallarni to'plash va tasnif qilishda xizmatlarini e'tirof etish lozim. Jumladan, shevalardagi til materiallarini to'plashda o'ziga xos metodlardan foydalanganiki, ular hozirgi kunda ham o'z ilmiy, amaliy ahamiyatini yo'qotmagan. Keyingi tadqiqotlarda Y.D.Polivanovning usul va metodlardan ununli foydalanib kelinmoqda. Uning ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlaridan foydalanib o'zbek shevalarini mukammal o'rganish lozim.

Turkiy tillarning bilimdoni, o'zbek tili, o'zbek alifbosi, folklori, etnografiya, o'zbek mumtoz adabiyoti, jumladan, Alisher Navoiy asarlari tabdilchisi, turkolog A.K.Borovkov o'zbek shevalarini ham o'rgangan olim, yirik dialektolog edi. U shevalarni tasnif qilishda o'z klassifikatsiyasining yaratgan va shevalarni guruhlashda boshqalardan farqli ayrim xususiyatlarni qayd etib o'tgan edi. A.K.Borovkov shevalarni fonetik belgilarga qarab ikki asosiy guruhga ajratadi: a-lovchi o'zbek shevalari va o-lovchi ozbek shevalari. O-lovchi shevalarda 6-7, a-lovchi shevalarda 10tagacha unlilar borligini hamda guruh y-lovchi va j-lovchi shevalar guruhiga bo'linishini ta'kidlab o'tadi. Olim y-lovchi shevalarga Janubiy Qozog'istondagi Turkiston, Mankent, Chimkent hududlarida, shuningdek, Janubiy Xorazm o'zbek dialektlarni, j-lovchilar guruhiga esa Shimoliy Xorazm, Surxondaryo va Samarqand hududlarining ba'zi qishloq shevalarini qamrab olishini qayd qilib o'tadi. O'zbek tilshunosligi, ayniqsa, dialektologiyasiga juda ko'p mehnati singgan olim A.K. Borovkov keyingi ilmiy faoliyati davomida o'zbek shevalarining yangi klassifikatsiyasini amalga oshiradi. O'zbek shevashunosligida nisbatan mukammal deb qaraladigan ushbu tasnifda o'rta o'zbek; shayboniy-o'zbek yoki j-lovchi; janubiy-Xorazm; alohida (kelib chiqishi jihatdan turlicha bo'lgan) guruh shevalari kabi 4 dialektga ajratadi va ularning farqli lingvistik xususiyatlarini sanab o'tadi. O'rta o'zbek lahjasiga oid shevalarni 6-7 unlili, birinchi va ikkinchi bo'g'in, asosan, ochiq bo'g'inli, singormanizm saqlanmagan shevalar sifatida baholaydi va bu lahjani 3 guruhga

ajratadi: Toshkent; Samarqand-Buxoro; Farg‘ona tipidagi shevalar. Bu tipdagi shevalarni fonetik, morfemin, morfologik tafovutlarini ajratib ko‘rsatadi. Leksik farqliliklarini ajratib beradi. A.K.Borovkov shayboniy-o‘zbek yoki j-lovchi dialektiga Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Ohangaron vodiysidagi shevalar, Shimoliy Xorazm hamda Farg‘ona vodiysidagi qipchoq va qoraqalpoq shevalarini kiritadi. Ularning boshqalardan farqli kategorial belgilari sifatida, asosan 8 unlilik, birinchi bo‘g‘inda keluvchi va o‘zgargan o bilan 9 unli bo‘lishi, y ning o‘rnida dj qo‘llanilishi kabilarni ajratib ko‘rsatadi. Qipchoq yoki j-lovchi shevalar guruhini Shayboniy-o‘zbek lahjasi yoki dialekti deb nomlash A.K.Borovkov tasnifidan boshlangan bo‘lsa kerak. Bunday nomlashni to‘g‘ri deb qabul qilish xato va uning zamirida ilmga xos bo‘lmagan maqsadlar bor, bizningcha. Olim o‘z tasnifida Janubiy Xorazm lahjasini Xonqa, G‘azovot, Sho‘raxon, Xozarasp, Yangiariq, Shovot shevalari tashkil qiladi, deb ajratib yozadi. Bu dialektning unililar tizimida 9ta tovush borligi, so‘z boshida tovushlar jaranglilashishi, k, q, g‘, g tovushlari so‘z oxirida tor unililardan so‘ng, deyarli, talaffuz qilinmasligi, lug‘at tarkibi jihar]tdan boshqa dialektlardan farqlanishi muhim belgilari ekanligi qayd etilgan. Kelib chiqishi turlicha bo‘lgan shevalarni A.K.Borovkov alohida guruhga tasniflagan. Bunday shevalar guruhiga Qorabuloq, Iqon, Mankent hamda “umlaut” shevalarini kiritgan. Ular boshqa dialektlardan tovushlarning uzun-qisqa talaffuz qilinishi ajratuvchi belgi ekanligi qayd etilgan. Shu o‘rinda “Umlaut” tushunchasi va uning shevashunoslikdagi o‘rni haqida mulohazalarni bildirib o‘tishimiz lozim¹. Manbalarda, jumladan, “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da umlaut (nem. Umlaut — unlini almashtirish) - so‘zdagi unililarning grammatik shakl yasash vositasi sifatida almashinuvi; o‘zakdagi orqa qator unlining o‘zidan keyingi (asosan, suffiksali) unli ta‘sirida old qator unliga aylanishidan iborat fonetik hodisa ekanligi ta‘riflangan. Masalan, german tillarida, xususan, nemis tilida a, o, i unililari o‘zakka qo‘shiladigan qo‘shimchalardagi i tovushi ta‘siri ostida yoki ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shilganda, ko‘plik shaklini hosil qilishda yumsharib, a, b, i tovushlariga aylanadi: “Umlaut” termini germanistikadan tashqari turkiyshunoslik ham qo‘llanadi, chunonchi, uyg‘ur pilit va o‘zbek tilining ayrim (Namangan viloyati) shevalarida “umlaut” xodisasi uchraydi². Bu xodisa fanda regressiv assimliyatsiya ham deb yuritiladi. Bu qonuniyatga ko‘ra affiksdagi old qator unli asosidagi orqa qator unlini o‘z xarakteriga moslashtirib oladi. Yosh-yasha, son-sana kabi. Bu xodisa o‘zbek tilining Namangan va O‘sh shevalarida ko‘proq uchrashi dialektal tadqiqotlarda aytib o‘tilgan³.

¹ Боровков А. К. Вопросы классификации узбекских говоров. Известия АН. 5. Т., 1953.

² Хожиев А. Тилшunoslik terminlarining izohli lug‘ati. -Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 2002, -Б.114.

³ Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi, Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashri, 2013, -B. 17.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, o'zbek olimlari ham shevalarni tadqiq qilgan. Shular birinchisi G'ozim Olim Yunusovdir. G'ozim Olim Yunusov o'zbek jadidchiligining muhim a'zolaridan biri sanaladi. Millatimiz madaniyati, tarixi, ta'limi, til va adabiyoti rivoji uchun katta xizmat qilgan olim, fanimizni zamonaviy ko'rinish rivojlanishi va samarali bo'lishi uchun ilg'or yevropacha usullar asosida tadqiqotlar olib borgan. Boshqa fanlar qatori tilshunoslik va uning dialektologiya yo'nalishi uchun ham muhim ishlarni amalga oshirgan. Aytish mumkinki, G'ozim Olim Yunusov zamonaviy o'zbek shevashunosligining asoschilaridan biri hisoblanadi. Birinchilardan bo'lib o'zbek shevalarining klassifikatsiyasi yaratgan. Olim o'z tasnifida shevalarni avvalo uch lahjaga ajratadi: 1. O'zbek-qipchoq lahjasi; 2. Turk-barlos lahjasi; 3. Xiva-Urganch lahjasi. Olim o'zbek-qipchoq va turk-barlos shevalarini fonetik va morfologik belgilarga asoslanib 4 tadan guruhga ajratadi. Qolgan shevalarning lingvistik xususiyatlarini izohlamaydi¹. I. O'zbek-qipchoq lahjasiga Ohangaron vodiysi, Mirzacho'l, Samarqand, Zarafshon, Buxoro atroflarida, Qashqadaryo, Surxondaryo hududlarida yashaydigan o'zbek shevalari kirishini qayd etadi. Shuningdek, bu lahja vakillari Xorazm, Andijon, Namangan, Qo'qon, Qoraqalpog'istonning Qipchoq, Chimboy. Qo'ng'iro't tumanlarida, Afg'oniston va Tojikistonning shimoliy hududlarida uchrashini ta'kidlab o'tgan. Bundan tashqari, O'zbek-qipchoq dialektining qirq, jaloyir-laqay, gurlan va qipchoq shevalari bir-birlaridan fonetik va morfologik tuzilishi jihatdan ichki farqlanishlarga ega ekanligini qayd etilgan; II. Turk-barlos lahjasiga Toshkent, Andijon, Qo'qon, Marg'ilon, Namangan, Chimkent, Sayram, O'sh, O'zgan shevalari kiradi. Bu lahja vakillari oz bo'lsa-da, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo va Zarafshon vodiysida bor. Olim bu lahjani 4 guruh shevalariga taqsimlaydi: 1. Sayram-Chimkent; Toshkent-Xos; 3. Andijon; 4. Namangan shevalari. Bu shevalar o'zaro tovushlash moslashishi, fe'l shakllarini o'zgacha xususiyatlari, kelishiklarning fonetik varianlari bilan farqlanib turishi tadqiqotda aks etgan. III. Xiva-Urganch lahjasida gaplashuvchilar Xiva, Yangi Urganch, Kar, G'azovat, Shohobod, Xonqa, Toshovuz, Eski Urganch, Xazorasp, To'rtko'l kabi tumanlarda yashaydi. Professor G'ozim Olim Yunusov ushbu lahjani 2 guruhga ajratadi: 1. Xiva shevasi; 2. Qorluq shevasi. Olim Xiva shevasida singarmonizm saqlanganligi, q o'rnida k kelishi, cho'ziq unnlilar kabi o'ziga xos lingvistik xususiyatlarini sanab o'tadi. Ammo Qorluq shevasi haqida biron bir ma'lumot bermaydi. Professor G'ozim Olim Yunusov o'zbek shevalarini tasnif qilayotganda barcha hududlarni qamrab olmaydi. Ular o'rtasidagi lisoniy farqlarni to'la ajratib ko'rsatmaydi. Shunday bo'lsa-da, olimning bu ishi o'zbek shevashunosligi tarixida ilk ilmiy tadqiqotlar biri sifatida yuqori baholashga loyiqdir.

¹ Юнусов Ғози Олим Ўзбек лахжаларининг таснифидан бир тажриба. Т.1936. 64-б.

Bundan tashqari, o'zbek tilshunoslari yetakchilaridan biri, Samarqand tilshunosligi maktabi asoschisi, professor Ulug' Tursunov ham o'zbek shevalarini fonetik belgilar asosida 2 guruhga: y-lanuvchi va j-lanuvchilarga ajratib tasnif qiladi. Tasnifda faqat Samarqand viloyati va unga yaqin joylar shevalari o'rin olgan. V.V.Reshetov¹ning tasnifida tarixiy-linvistik xususiyatlari va qo'shni tillarning ta'siri inobatga olinadi. Turkiy tillarga xos barcha jihatlar borligini inobat olib, o'zbek tili shevalarini quyidagi lahjalarga ajratadi: 1. Shimoliy-G'arbiy guruhga o'zbek tilining qipchoq lahjasi; 2. Janubiy-G'arbiy guruh o'zbek tilining o'g'uz lahjasini o'z ichiga oladi. 3. Janubiy-Sharqiy guruhga qarluq-chigil-uyg'ur lahjasini tashkil qiluvchi ko'pchilik shahar shevalari, hozirgi o'zbek adabiy tili va eski o'zbek adabiy tili, qardosh turkiy tillardan esa yangi uyg'ur tillari kiradi. Mazkur lahjaga kiruvchi shevalarning ko'pchiligi uchun shu narsa xoski, ular tojik tili bilan juda qadimgi aloqador.

XULOSA

Yuqorida tahlil qilib chiqqanimiz o'zbek shevalarini klassifikatsiya qilishda dialektning tabiatiga xos xususiyatlarni asos qilib olishga harakat qilgan. Bizningcha, sheva va lahjalarni tasnif qilishda ularga xos bo'lgan quyidagi belgi va xususiyatlar inobatga olinishi lozim:

1. Kelib chiqishi va tarixiy tadrijiy belgilari;
2. Siyosiy birlashuvi va hududiy joylashuvi, ariallingvistik belgilari;
3. Qarindosh bo'lgan til va dialektlar bilan o'zaro ta'siri;
4. O'zga til, lahja va madaniyatlar bilan ta'siri va chatishuvi;
5. Sheva va lahjalarning tabiiy fonetik va artikulyatsion xususiyatlari, singormanizm;
6. Sheva va lahjalarning tabiiy morfologiyasi, morfemikasi va siktaksisi;
7. Sheva va lahjalarga xos lelsik xususiyatlar;
8. Sheva va lahjalarning tabiiy lingvomadaniy xususiyatlari.

Bu belgi va xususiyatlar yuqorida ta'kidlab o'tganimiz dialektologlar tomonidan amalga oshirgan klassifikatsiyalarda, tamoman, inobatga olingan deb aytish mushkul. I.I.Zarubin o'z tasnifida qaysi belgi va xususiyatlar asosida klassifikatsiya qilganini aytmaydi, faqat fonetik belgi sifatida y-lashish haqida fikr bildiradi, xolos. K.K.Yudaxin, Y.D.Polivanov kabi olimlar o'z klassifikatsiyalarida birlamchi sifatida sheva va lahjalarning ichki va tashqi ta'sirlashuvini inobatga olgan. A.K.Borovkov, G'ozzi Olim Yunusov, Ulug' Tursunov kabi tilshunos turkologlar fonetik belgi asosida, ya'ni, y-lashish va j-lashish xususiyatini inobatga oladi. Umuman, birlamchi belgi

¹ Решетов В. В. Ўзбек шеваларининг классификацияси // ЎТА. Т, 1966. 49-51-б.

asosida tasnif qilish va qolgan xususiyatni ham inobatga olgan holda klassifikatsiyasi amalga oshirish muhim hisoblanadi. Nazarimizda, barcha belgi va xususiyatlarni e'tirof etgan holda o'zbek shevalarini tasnif qilish oldimizda amalga oshirishimiz lazim bo'lgan ishlardan biridir.

Umuman, o'zbek sheva va dialektlarini tadqiq va tasnif qilishda K.K.Yudaxin, G'ozi Olim, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov kabi olimlarning buyuk xizmatlari bor. Bu olimlar rahbarligida mahalliy o'zbek olimlari yetishib chiqdi. O'zbek shevalari akademik Sh.Shoabdurahmonov, professor va fan doktorlari M.Mirzaev, F.Abdullaev, S.Ibrohimov, X.G'ulomov, Y.G'ulomov, A.Aliev, A.Shermatov, A.Jo'raev, O.Madrahimov, T.Yo'ldoshev, N.Rajabov, X.Doniyorov, T.Nafasov, Q.Muhammadjonov, Y.Ibrohimov va boshqa olimlarimiz tomonidan tadqiq etilgan. Bu professor va fan doktorlari bilan birga 50ga yaqin fan nomzodlari, dotsentlar o'zbek shevalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar va olib bormoqdalar. Bu olimlar ishlari tufayli o'zbek dialektologiyasi fan sifatida shakllandi va deyarli barcha lahja va shevalar sinxronik tarzda o'rganib chiqildi, lug'atlari tuzildi. O'zbek dialektlari hamon tadqiqot ob'yekti bo'lishi mumkin, ya'ni endilikda o'zbek shevalarining barcha masalalari bo'yicha nazariy muammolar: o'zbek shevalari fonologiyasi, turkiy dialektologiya, etimologiya, turkiy tillar bilan qiyosiy jihatlardan o'rganilishi kerak. Bu kabi masalalarning o'rganilishi o'zbek tilshunosligini yanada boyitishga xizmat qiladi¹.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi, Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashri, 2013, -B. 176.
2. Боровков А. К. Вопросы классификации узбекских говоров. Известия АН . 5. Т., 1953.
3. Поливанов Е. Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. Т, 1933.
4. Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. -Тошкент: Ўқитувчи, 1996. -Б.156.
5. Решетов В. В. Ўзбек шеваларининг классификацияси // ЎТА. Т, 1966.
6. Тўйчибоев Б., Хасанов Б. Ўзбек диалектологияси. -Тошкент: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2004, -Б.5-6.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати 5 жилдли, 1-жилд. -Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти, 2006. -Б.604.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати 5 жилдли, 2-жилд. -Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти, 2006. -Б.493.

¹ Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi, Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashri, 2013, -B. 45.

9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати 5 жилдли, 3-жилд. -Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти, 2006. -Б.562.
10. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. -Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. 2006. -Б.301
11. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. -Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 2002, -Б.36
12. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. -Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 2002, -Б.130
13. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. -Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 2002, -Б.114.
14. Юдахин К.К. Некоторые особенности Карабулакского говора / Ўзбек диалектологиясидан материаллар, Т1. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1957.–Б.186.
15. Юнусов Ғози Олим Ўзбек лаҳжаларининг таснифидан бир тажриба. Т.1936.